



2021-y. «21» декабрь

№ 03-02/3-3583 « » 2021 г.

ЎТА МУҲИМ!

**Қорақалпоғистон Республикаси
халқ таълими вазири, Тошкент
шаҳар халқ таълими бош
бошқармаси ва вилоят халқ
таълими бошқармалари
бошлиқларига**

**Туман (шаҳар) халқ таълими
бўлими мудирларига**

**Вазирлик тасарруфидаги
давлат ихтисослаштирилган
умумтаълим мактабларига**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги ПҚ-5117-сонли қарорига мувофиқ Давлат бюджетидан замонавий адабиёт, дарслик ва ўқув қўлланмаларини сотиб олиши учун умумий ўрта таълим муассасаларининг ҳар бир хорижий тил фани ўқитувчисига 1 млн. сўмдан маблағ ажратилди.

Шу билан бирга, Халқ таълими вазирлиги ва Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш агентлиги томонидан хорижий тиллар ўқитувчиларига тавсия этилган замонавий адабиётлар, дарслик ва ўқув қўлланмалар рўйхати тасдиқланиб, Вазирликнинг 2021 йил 6 декабрдаги 03-03/1-3396-сонли кўрсатма хати билан барча ҳудудларга етказилган.

Шунга қарамасдан, бугунги кунда айрим ҳудудлардан ушбу маблағларни ўқитувчилар томонидан сарфлашда ҳудудий халқ таълими бўлинмаларининг асоссиз равишда аралашаётганлиги, ўқитувчиларга ушбу китобларни марказлашган тартибда харид қилишга мажбурлаётганлиги ва турли хил ҳисоботларни талаб этаётганлиги юзасидан кўплаб шикоятлар Вазирликка келиб тушмоқда.



Шу муносабат билан, Сиздан мазкур масалалар бўйича қуйидагиларни қатъий назоратга олишингиз сўралади:

биринчидан, Халқ таълими вазирлиги ва Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш агентлигининг 2021 йил 16 ноябрдаги 64 кк, 3кк-сонли қўшма қарорига мувофиқ чет тиллари фани ўқитувчилари томонидан замонавий адабиётларни **ҳар йилнинг 1 августига** қадар харид қилинишини;

иккинчидан, 2021 йилнинг якунига қадар ушбу адабиётларни харид қилишга **мажбурланмаслигини**;

учинчидан, замонавий адабиётларни харид қилиш фақатгина ушбу ўқитувчиларнинг ўзлари томонидан **мустақил равишда** (*бошқа омилар аралашмаган ҳолда-марказлашмаган*) амалга оширилишини;

тўртинчидан, Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш агентлиги ҳамда Халқ таълими вазирлиги томонидан тасдиқланган замонавий адабиёт, дарслик ва ўқув қўлланмалар **рўйхати тавсиявий характерга эга бўлиб, фақатгина** ушбу рўйхатдаги адабиётларни харид қилиш мажбурий эмаслигини тушунтириш ва жойларга етказилишини;

бешинчидан, чет тили фани ўқитувчилари томонидан харид қилинаётган замонавий адабиётлар **ўқитувчининг шахсий мулки** ҳисобланиб, ушбу адабиётларни **мактаб кутубхонасига топширилиши** талаб этилмаслигини.

Юқоридагиларни инобатга олиб, хорижий тиллар ўқитувчиларига замонавий адабиёт, дарслик ва ўқув қўлланмаларни сотиб олиши учун 1 млн. сўмдан маблағлар ўз вақтида ажратилишини таъминлаш, шунингдек, уларни харид қилишда асоссиз талаблар қўйилмаслиги юзасидан тегишли чораларни кўришингиз сўралади. Мазкур масалалар бўйича **шахсан биринчи раҳбар жавобгар ҳисобланади.**

Эслатма! Агар худудингиздаги чет тили фани ўқитувчилари томонидан юқорида келтирилган ҳолатлар, жумладан марказлашган ҳолда замонавий адабиётларни харид қилиш бўйича **коррупциоген** ҳолатлар, **муайян** етказиб берувчи ёки нашриётнинг адабиётларини **харид қилишга мажбурлаш** ҳамда турли **кераксиз ҳисоботларни талаб этиш** бўйича ҳақли мурожаатлар келиб тушган ҳолларда қонунчиликда назарда тутилган **жазо чоралари кўрилиши** юзасидан огоҳлантирамыз.

Тегисли хужжатлар қайта илова қилинади.

Илова ___ варақда.

Вазир ўринбосари

Т.Комилов

Ижрочилар: Л.Хўжакулов, И.Сираджев



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI XORIJIY
TILLARNI O‘RGANISHNI OMMALASHTIRISH AGENTLIGINING
QARORI**

**Xorijiy tillar o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy adabiyotlar,
darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olganlik to‘g‘risidagi hisobot shaklini shakllantirish
tartibi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi va Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi **qaror qiladi**:

1. Xorijiy tillar o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olganlik to‘g‘risidagi hisobot shaklini shakllantirish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta‘limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta‘limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta‘limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) xalq ta‘limi bo‘limi mudirlariga:

umumta‘lim muassasalarining xorijiy tillar o‘qituvchilarini zamonaviy adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ilovaga muvofiq shakllantirish.

Bunda, ushbu ma‘lumotlarni to‘g‘ri va haqqoniy kiritilishi bo‘yicha muassasa rahbariga javobgarlik yuklatiladi;

xorijiy tillar o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini sotib olganlik to‘g‘risidagi hisobotlarni ilovaga muvofiq belgilangan muddatlarga qat’iy amal qilgan holda taqdim etilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini Xalq ta‘limi vazirining birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjaev va Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi direktori o‘rinbosari A.Husanov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq ta‘limi vaziri

Toshkent sh.,
2021-yil “18”- Mayda,
64 k/k -son

Sh. Shermatov

**Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish
agentligi direktori**

Toshkent sh.,
2021-yil “16”- Mayda,
3 k/k -son

S. Obidov

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi va
Xorijiy tillarni o'rganishni
ommalashtirish agentligining
2021-yil "16"-noyabr dagi
644/k va 34/k-son qaroriga
ILOVA

**Xorijiy tillar o'qituvchilari tomonidan zamonaviy adabiyotlar,
darslik va o'quv qo'llanmalarini sotib olganlik to'g'risidagi
hisobot shaklini shakllantirish
TARTIBI**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tartib umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilarini zamonaviy adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalarini (keyingi o'rinlarda – zamonaviy adabiyotlar) sotib olganligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. O'qituvchilar egallab turgan pedagogik stavkalari hamda asosiy ish joyi bo'yicha yoki mehnatiga soatbay asosida haq to'lash shaklida faoliyat yuritayotganligidan qat'iy nazar zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Bunda, o'qituvchilarga faqatgina birgina ish joyi bo'yicha zamonaviy adabiyot xarid qilish uchun belgilangan mablag' ajratiladi.

3. O'qituvchilarga Davlat budjetidan zamonaviy adabiyotlarni sotib olishi uchun mablag'lar Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni omallashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori asosida amalga oshiriladi.

**III bob. O'qituvchilar tomonidan zamonaviy adabiyotlar
xarid qilish va hisobini yuritish**

4. Xorijiy tillarni o'rganishni omallashtirish agentligi va Xalq ta'limi vazirligi har yili 1-aprelga qadar umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy tillar o'qituvchilari tomonidan xarid qilinadigan zamonaviy adabiyotlar ro'yxatini tasdiqlaydi.

5. Ro'yxat tasdiqlangandan so'ng 3 kun ichida Xorijiy tillarni o'rganishni omallashtirish agentligi va Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

6. Xorijiy tillar o'qituvchilari har yili 1-avgustga qadar ro'yxatda ko'rsatilgan zamonaviy adabiyotlardan ixtiyoriy ravishda xarid qiladi va o'zi

faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasasi direktoriga xarid qilingan zamonaviy adabiyotlarni sotib olganligini tasdiqlovchi savdo chekini taqdim etadi yoki zamonaviy adabiyotlarni ko'rsatadi.

7. Umumta'lim muassasasi direktori ushbu muassasada faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari tomonidan xarid qilingan zamonaviy adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlab mazkur tartibning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi hisobotni o'z imzosi va muhri bilan tasdiqlagan holda 3 kun muddatda tegishli tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limiga yuboradi.

8. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi 2 kun muddatda tizimidagi barcha umumta'lim muassasalari kesimida ma'lumotlarni jamlab, ushbu tartibning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi hisobotni bo'lim mudiri imzosi va muhri bilan tasdiqlagan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tuman (shahar) moliya organlariga taqdim etadi.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni umumlashtirib, 2 kun muddatda tuman (shahar)lar kesimida ushbu tartibning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi hisobotni rahbar imzosi va muhri bilan tasdiqlagan holda Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etadi.

Xalq ta'limi vazirligi hisobotlarni umumlashtirgan holda tahlil qiladi va tahlil natijalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligiga yuboradi.

III bob. Yakuniy qoidalar

10. Zamonaviy adabiyotlar sotib olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni haqqoniy va to'g'ri taqdim etilishi bo'yicha javobgarlik umumta'lim muassasasi rahbariga yuklatiladi.

11. Mazkur tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Xorijiy tillar o'qituvchilari
tomonidan zamonaviy adabiyotlar,
darslik va o'quv qo'llanmalarni
sotib olganlik to'g'risidagi hisobot
shaklini shakllantirish tartibiga
1-ILOVA

_____ umumta'lim muassasasining xorijiy tillar o'qituvchilari
tomonidan xarid qilingan zamonaviy adabiyotlar, darslik va o'quv
qo'llanmalari to'g'risidagi ma'lumotlar
NAMUNAVIY HISOBOT SHAKLI

T/r	Xorijiy tillar o'qituvchilarining ismi, sharifi	Xorijiy til nomi	Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalari		
			nomi	soni, dona	narxi (bir donasi uchun), so'm
1					
2					
...					
	Jami				

Direktor

(imzo, muhr)

(F.I.SH.)

Xorijiy tillar o'qituvchilari
 tomonidan zamonaviy adabiyotlar,
 darslik va o'quv qo'llanmalarini
 sotib olganlik to'g'risidagi hisobot
 shaklini shakllantirish tartibiga
 2-ILOVA

_____ tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tizimidagi umumta'lim
 muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari tomonidan zamonaviy
 adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalarini sotib olganlik to'g'risidagi
NAMUNAVIY HISOBOT SHAKLI

T/r	Umumta'lim muassasasi	Xorijiy tillar o'qituvchilari soni	Xorijiy til nomi	Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalari		
				nomi	soni, dona	Jami summasi, mln. so'm
1						
2						
...						
	Jami					

Mudir

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)

Bosh hisobchi

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)

Xorijiy tillar metodisti

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)

Xorijiy tillar o'qituvchilari
 tomonidan zamonaviy adabiyotlar,
 darslik va o'quv qo'llanmalarini
 sotib olganlik to'g'risidagi hisobot
 shaklini shakllantirish tartibiga
 3-ILOVA

_____ xalq ta'limi vazirligi/boshqarmasi tizimidagi umumta'lim
 muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari tomonidan zamonaviy
 adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalarini sotib olganlik to'g'risidagi
NAMUNAVIY HISOBOT SHAKLI

T/r	Tuman (shahar) nomi	Umumta'lim muassasasi soni	Xorijiy tillar o'qituvchilar soni	Xorijiy til nomi	Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar		
					nomi	soni, dona	Jami summasi, mln.so'm
1							
2							
...							
	Jami						

Vazir/Boshqarma boshlig'i

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)

Bosh hisobchi

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)

Metodist

 (imzo, muhr)

 (F.I.SH.)



**Умумий ўрта таълим муассасаларида фаолият юритаётган хорижий тиллар ўқитувчиларига тавсия этиладиган
замонавий адабиёт, дарслик ва ўқув қўлланмалари
РЎЙХАТИ**

(Асос: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5117-сон қарори)

T/p	Номи	Нашриёт	ISBN CODE
Хорижий адабиётлар			
Француз тили			
1	Alter EGO +: Livre de l'eleve + CD-Rom B1	Hachette FLE	9782011558145
2	Alter Ego +: Cahier d'activites + CD audio B1 by Fleury,	Hachette FLE	9782011558152
3	Alter EGO 3 +: Guide Pedagogique 3 (French Edition)	Hachette FLE	97820115581831
4	Alter Ego + 4: Livre Eleve + CD-ROM	Hachette FLE	9782014015508
5	Alter Ego +: Cahier d'activites + CD audio B2	Hachette FLE	9782014015515
6	Alter Ego+ 4 Guide Pedagogique	Hachette FLE	9782011559975
7	DELFB2 Scolaire et Junior + CD	Hachette FLE	9782011557315
8	DELFB1 Scolaire et Junior Nouvelle Edition + DVD ROM	Hachette FLE	9782016286418
9	DELFB2 Scolaire et Junior Nouvelle Edition + DVD ROM	Hachette FLE	9782016286425
10	DELFB1 + CD audio	Hachette FLE	9782011554895
11	DELFB2 + CD audio	Hachette FLE	978-3190733828

12.	Focus - Phonie-graphie du français + CD audio MP3 + corrigés	Hachette FLE	9782014016291
13.	Focus : Écrits en situations + corrigés	Hachette FLE	9782014016147
14.	Focus : Paroles en situation + CD audio + corrigés + Parcours digital	Hachette FLE	9782014016000
15.	Focus : Grammaire du français + CD audio + corrigés + Parcours digital	Hachette FLE	9782011559647
<i>Немис тили</i>			
16.	Aussprachespiele A1-C1	Klett	978-3-12-675187-2
17.	Deutsch intensiv Grammatik B1	Klett	978-3-12-675067-7
18.	Deutsch intensiv Grammatik B2	Klett	978-3-12-675037-0
19.	Deutsch intensiv Lesen B1	Klett	978-3-12-675208-4
20.	Deutsch intensiv Hören und Sprechen B1	Klett	978-3-12-675212-1
21.	DEUTSCH INTENSIV Schreiben B1	Klett	978-3-12-675039-4
22.	So geht's zum Goethe-/ÖSD-Zertifikat Testbook including 3 audio CDs	Klett	978-3-12-675854-3
23.	So geht's zum Goethe-/ÖSD-Zertifikat TB	Klett	978-3-12-675855-0
24.	Grammatik mal vier	Klett	674200
25.	66 Sprachspiele für die Schule 66 Language games for school A1-A2: Vocabulary and Grammar	Klett	674156
26.	DaF unterrichten	Klett	675308
27.	Deutsch als Zweit-und Fremdsprache A2-B1 Prüfungsvorbereitung Start Deutsch, DTZ, Zertifikat Deutsch Übungsbuch	Klett	676231-1
28.	Deutsch intensiv Lesen B2	Klett	675209-1
29.	Deutsch intensiv Lesen Schreiben B2	Klett	675044-8
30.	Deutsch intensiv Hören und Sprechen B2	Klett	675227-5
31.	Mit Erfolg zum Goethe-Zertifikat B2 Übungsbuch, 200 S. + Klett Augmentet	Klett	675154-4
32.	55 Kommunikative Spiele Photocopiables: 55 games to practise authentic communication, level A1 - C1	Klett	675184
33.	Grammatik & Konversation II B1- B2, Arbeitsblätter für den Deutschunterricht	Klett	606364-7
34.	Prüfungsvorbereitung Start Deutsch, DTZ, Zertifikat Deutsch Übungsbuch, 64 S.+ Audio-CD + Klett Augmentet	Klett	676230-4
35.	DEUTSCH INTENSIV Schreiben B2	Klett	675044-8
36.	Menschen B1 Kursbuch	Hueber	978-3-19-211903-3
37.	Menschen B1 Arbeitsbuch mit 2 Audio-CDs	Hueber	978-3-19-111903-4
38.	Deutsch üben Lesen und Schreiben B1	Hueber	978-3-19-577493-2

39.	Deutsch üben Hören und Sprechen B2	Hueber	978-3-19-767493-3
40.	Deutsch üben Hören und Sprechen C1	Hueber	978-3-19-747493-9
41.	Grammatik – ganz klar! Übungsgrammatik A1-B1	Hueber	978-3-19-041555-7
<i>Инглиз тили</i>			
42.	Language Learning with Technology: Ideas for Integrating	Cambridge	9781107628809
43.	Testing Reading Through Summary : Investigating Summary Compl	Cambridge	9781107695702
44.	Meaningful Action: Earl Stevick's Influence on Language Teaching	Cambridge	9781107610439
45.	English Vocabulary in Use: Advanced Book with Answers and Enhanced eBook: Vocabulary Reference and Practice	Cambridge	9781316630068
46.	Grammar for English Language Teachers	Cambridge	9780521712040
47.	Teaching Pronunciation Paperback with Audio CDs (2): A Course Book and Reference Guide	Cambridge	9780521729765
48.	C.L.I.L. Content and Language Integrated Learning 1st Edition	Cambridge	9780521130219
49.	Approaches and Methods in Language Teaching	Cambridge	9780521130219
50.	Evolve Level B1 Student's Book with Practice Extra	Cambridge	9781108405324
51.	Evolve Level B2 Student's Book with Practice Extra	Cambridge	9781108405348
52.	First Trainer 2 Six Practice Tests with Answers with Audio New Edition	Cambridge	9781108525480
53.	IELTS Trainer 2 Academic: Six Practice Tests	Cambridge	9781108567589
54.	Jack C Richards' 50 Tips for Teacher Development: Cambridge Handbooks for Language Teachers	Cambridge	9781108408363
55.	Scott Thornbury's 30 Language Teaching Methods Pocket Editions: Cambridge Handbooks for Language Teachers 1st Edition	Cambridge	9781108408462
56.	Teacher Wellbeing	Oxford	9780194405638
57.	Teaching Second Language Listening	Oxford	9780194423342
58.	Learning and Teaching English: A Course for Teachers	Oxford	9780194422772
59.	Teaching and Learning in the Language Classroom	Oxford	9780194371728
60.	Putting CLIL into Practice	Oxford	9780194421058
61.	How Languages are Learning e-book	Oxford	978019451299
62.	Teenagers	Oxford	9780194425773
63.	Grammar	Oxford	9780194421928
64.	Writing	Oxford	9780194421904
65.	Listening	Oxford	9780194372169
66.	Vocabulary	Oxford	9780194421867

67.	Learner-based Teaching	Oxford	9780194371636
68.	Advanced Learners	Oxford	9780194421942
69.	How to Teach for Exams	Oxford	9780582429673
70.	How to Teach Listening +CD	Oxford	9781405853101
71.	How to Teach Speaking	Oxford	9780582853591
72.	How to Teach Vocabulary	Oxford	9780582429666
73.	How to Teach Writing	Oxford	9780582779983
74.	How to teach English	Pearson	-
75.	How to teach Grammar	Pearson	-
76.	Language Hub Intermediate Student's Book with App	Macmillan	9781380017109
77.	Language Hub Intermediate Work Book	Macmillan	9781380017130
78.	Language Hub Intermediate Teacher's Book	Macmillan	9781380017123
79.	Language Hub Upper-Intermediate Student's Book	Macmillan	9781380017307
80.	Language Hub Upper-Intermediate Work Book	Macmillan	9781380017338
81.	Language Hub Upper-Intermediate Teacher's Book	Macmillan	9781380017321
82.	Ready for IELTS Digital Student's Book with Answers Pack	Macmillan	9781786328595
83.	The New A-Z of ELT	Macmillan	9781380006233
84.	Learning Teaching Third Edition	Macmillan	9781380012722
85.	700 Classroom Activities	Macmillan	9781380012784
86.	Grammar and Vocabulary Practice B2 Teacher's Book	Macmillan	-
87.	IELTS Practice tests Exam Preparation	Macmillan	-

Изоҳ: Ушбу рўйхатга киритилган адабиётлар сотувда мавжуд бўлмаган ҳолатда ўқитувчиларга хорижий тилларни ўрганишлари учун фойдали бўладиган педагогик маҳорат ва методикани ривожлантиришга қаратилган бошқа адабиётлар харид қилиниши мумкин.